


QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- fevral holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar oyida)







Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **58,6** foizga oshdi




■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarida xizmat ko‘rsatish

O‘rmon xo‘jaligi

Baliq xo‘jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **20,0 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



258

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

3 798

Ishlab chiqarish sanoati

29

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

57

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 4 142 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 120,0 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 120,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,7 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 116,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 6,2 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 126,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,7 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 126,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,4 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,3** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




8,4 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




12,1 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




11,8 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 334 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,3 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 105,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 69,9 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 124,0 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,5 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 113,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 21,8 %) o'sishidir.


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 7 987 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 29,1 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 31,6 % ga (jami savdodagi ulushi 69,6 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 21,9 % ga (jami savdodagi ulushi 22,9 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 29,5 % ga (jami savdodagi ulushi 7,5 %) o'sishidir.




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




Xususiy korxonalar



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni




(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar

Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar


Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

667



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

19



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

11



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



85

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 375

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021-yil 1-fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 460 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 26,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 28,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 94,2 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 97,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 5,8 %) o'sishidir.

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **26,2** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




26,7 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




28,8 foizga oshdi




Oilaviy korxonalar




54,8 foizga oshdi



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan **13,7** foizga oshdi




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **22,5** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




25,0 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar



1,8 martga ko'paygan




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **33,3** foizga kamaydi



Xususiy korxonalar




23,9 foizga oshdi







Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,5** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




10,2 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar



77,8 foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **25,0** foizga oshdi




Xususiy korxonalar






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1-fevral holatiga ko'ra 2 647 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1262 taga yoki 91,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 554 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 211 taga yoki 90,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 277 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 225 taga yoki 5,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1-fevral holatiga ko'ra 14 308 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 546 taga yoki 32,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 929 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 446 taga yoki 32,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 742 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 479 taga yoki 2,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra 225 tani tashkil etib, ulardan 220 tasi yoki 97,8 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 25 taga yoki 12,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar oyida viloyatimizda xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilmagan.

Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

19

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
Jami	47	55	91	197	220
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	3	3	10	31	41
Sanoat	32	37	53	104	112
Qurilish	1	2	4	10	10
Savdo	7	9	13	27	31
Tashish va saqlash	1	1	2	4	5
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	0	0	4	10	8
Axborot va aloqa	1	1	1	3	1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	0	0	0	3	4
Boshqa turlar	2	2	4	5	8

Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni


(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Qashqadaryo viloyati	220	156	64
G'uzor	10	8	2
Dehqonobod	14	10	4
Qamashi	14	10	4
Qarshi	16	10	6
Koson	20	13	7
Kitob	18	12	6
Mirishkor	6	4	2
Muborak	9	6	3
Nishon	15	13	2
Kasbi	5	3	2
Chiroqchi	10	8	2
Shahrisabz	6	4	2
Yakkabog'	16	9	7
Qarshi sh.	56	45	11
Shahrisabz sh.	5	1	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahrida 56 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 25,5 %), Koson 20 ta (9,1 %), Kitob 18 tani (8,2 %), Yakkabog' 16 ta (7,3 %), Qarshi 16 ta (7,3 %), Nishon 15 ta (6,8 %) hamda Qamashi tumanida 14 tani (6,4 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahri (20,0 %), Chiroqchi (8,2 %), Koson (7,6 %), Qamashi (7,5 %), Qarshi (7,5 %), Kitob (6,8 %), Yakkabog' (6,6 %), Shahrisabz shahri (5,9 %), Shahrisabz (5,1 %), G'uzor (4,8 %), Dehqonobod (4,7 %), Kasbi (4,3 %), Nishon (4,2 %), Mirishkor (3,4 %), va Muborak (3,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yil yanvar oyida, birlikda)

2021- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Qamashi (28,9 %), Qarshi shahrida (10,7 %), Kitob (7,7 %), Yakkabog' (6,9 %), Chiroqchi (6,6 %), Shahrisabz (5,7 %), Qarshi (5,5 %), Nishon (5,1 %), Koson (4,4 %), G'uzor (4,4 %), Kasbi (4,3 %), Shahrisabz shahri (3,1 %), Dehqonobod (3,0 %), Muborak (2,0 %), va Mirishkor tumani (1,9 %) ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Qarshi shahrida (24,6 %), Koson (10,5 %), Qamashi (9,0 %), Chiroqchi (7,8 %), Qarshi (6,7 %), Yakkabog' (5,9 %), Mirishkor (4,7 %), Kasbi (4,6 %), Muborak (4,4 %), Shahrisabz shahri (4,3 %), Nishon (4,2 %), G'uzor (4,1 %), Kitob (4,1 %), Shahrisabz (3,3 %) va Dehqonobod tumani (1,7 %) hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi


(2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017- 2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2021- yilning yanvar oyida, birlikda)




2021- yilning yanvar oyida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Shahrisabz (23,5 %), Kitob (17,3 %), Chiroqchi (15,5 %), G'uzor (12,6 %), Qarshi shahri (11,2 %), Qarshi (7,6 %), Shahrisabz shahri (4,0 %), Qamashi (2,9 %), Yakkabog' (1,4 %), Koson (1,4 %), Nishon (0,7 %), Dehqonobod (0,7 %), Kasbi (0,4 %), Muborak (0,4 %) va Mirishkor tumanida (0,4 %) ulushlarini qayd etadi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar oyida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining www.qashstat.uz rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi
Statistik registrnlarni
yuritish bo'limi
Tel.:(75) 220-03-98